



RHUS CORIARIA L. ASOSIDA OLINGAN QURUQ EKSTRAKTNING TEXNOLOGIK XOSSALARI

Abdullayeva D.Q.^{1,2}**Turaboyev Sh.M.¹****Sagdullaev B.T.¹**¹O'zR FA Bioorganik kimyo instituti,²Toshkent farmatsevtika instituti

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: abdullayevadilya8@gmail.com, tel: (88) 434-06-90

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17326439>

Dolzarbli. Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunga kelib respublikamizda aholini birinchi marta tashxis bilan qayd qilingan kasalliklarga chalinish turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich nafas organlari kasalliklari hissasiga to'g'ri kelib, har 100 ming aholidan 13 ming nafarida ushbu kasallanish kuzatilmoqda. Bu borada men amalga oshirmoqchi bo'lgan izlanishlarim asosida inson tanasining funksional holatini normallashtirish va yaxshilash uchun tabiiy biologik faol birikmalar - flavonoidlar *Rhus coriaria* L o'simligi quruq ekstraktidan LOR a'zolarining yuqumli kasalliklari namoyon bo'lishini pasaytiruvchi biologik faol qo'shimcha ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yotadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mahalliy o'simlik xomashyolari asosida tabletka shaklidagi biologik faol qo'shimcha olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Usul va uslublar: Olingan quruq ekstrakti texnologik xossalardan saralanish tarkibi, sochiluvchanlik, sochiluvchan zichlik, tabiiy og'ish burchagi, g'ovakligi va qoldiq namligi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Quruq ekstraktning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari umumiy qabul qilingan usullar yordamida ilmiy tadqiqot izlanishlar olib borildi.

Natijalar: Ilmiy tadqiqot *Rhus coriaria* L. quruq ekstrakti namunalari zarrachalarining shaklini qurollanmagan ko'z bilan ko'rish imkoniyati bo'lmaganligi sababli mikroskop orqali kuzatishlar olib borildi. Mikroskopik tekshiruvlar asosida zarrachalarning o'lchami va shakli aniqlandi, shuningdek, sochiluvchanligi, sochiluvchan zichligi, tabiiy og'ish burchagi, qoldiq namligi tadqiq qilindi.

Mikroskopik tekshiruvlar quruq ekstrakt zarrachalari turli o'lchamda, anizometrik shakldan tashkil topganligini ko'rsatdi. Saralanish tarkibi +1000 mkm elakda 21,82%, -1000 +800 mkm elak to'plamida 13,39%, -800 +500 mkm elakda 11,72%, -500 +300 mkm elakda 18,84%, -300 +200 mkm elakda 9,20%, -200 +150 mkm elakda 4,60%, -150 +100 mkm elaklararo to'plamda 12,07% va -100 mkm elakda 8,35% ko'rsatkichlar aniqlanib, katta o'lchamlardagi elaklarda yuqoriroq foizni, kichik elaklarda nisbatan past foizni tashkil etishi namoyon bo'ldi. Quruq ekstraktning texnologik xossalari Davlat farmakopeyasida keltirilgan usullar yordamida o'rganilganda uning sochiluvchanligi $7,69 \cdot 10^{-3}$ kg/s, sochiluvchan zichligi 0,365 g/ml, tabiiy og'ish burchagi 40 gradus, gigroskopiklik darajasi 14,5%, qoldiq namlik 6,5% ni tashkil etganligi ilmiy izlanishlar asosida o'rganib chiqildi.

Xulosalar. Ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida tajriba natijalariga asoslangan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, quruq ekstraktning saralanish tarkibi elaklar to'plamlariga nisbatan o'zaro teng taqsimlanmadi, bu esa quruq ekstrakt tarkibidagi zarralar shakllarni har xil bo'lganligi sabablidir va tajribadan ko'rinadiki katta o'lchamdagi elaklarda taqsimlanish yuqori foizni namoyon qildi. Sochiluvchan zichligi past, tabiiy og'ish burchagi qoniqarli, gigroskopik, qoldiq namligi meyorida ekanligi qayd etildi.